

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI.

Muxtorova Rohila

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ,

1-bosqich magistranti.

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ta'lim oluvchi o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish , ingli tilini o'qitish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan hamda til ko'nikmalarini samarali rivojlantirishda yordam beruvchi innovatsion usullar va zamonaviy metodlar tog'risida fikr yuritiladi .

KALIT SO'ZLAR : innovatsion metodlar, zamonaviy ta'lim, kreativlik, interaktiv o'qitish, vizual materiallar.

KIRISH

Bugungi kunda chet tillarini o'rganish xususan ingliz tiliga bo'lgan e'tibor nafaqat mamlakatimizda balki dunyo miqyosida ilgarilab bormoqda . Boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish uchun turli xil innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilar diqqatini jalb qilish, mavzuni yanada batafsil yoritib , qiziqarli va tushunarli bo'lishiga ko'mak beradi. Dars davomida yangi metodlardan foydalanish va ularni keng tadbqiq etish ta'lim sifatini oshirish uchun hizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2012-yil 12-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 1875-sonli qaroriga muvofiq yurtimizda xorijiy tillarni ahamiyati ,ularni o'rnagish va o'rgatish zaruriyati yangi bosqichga ko'tarildi. Maktab o'quvchilariga xususan boshlang'ich ta'limga qamrab olingan o'quvchilarga chet tillarini o'rgatish samaradorligini oshirish maqsadida turlicha qiziqarli o'yinlar, ko'rgazmali qurollar va interaktiv metodlar ishlab chiqildi. Ta'lim jarayonida interaktiv

metodlardan foydalanish chet tillarini o'rgatishning amaliy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

Oldinlari til bilish alohida e'tirof etiladigan qobiliyat bo'lgan bo'lsa, hozir zaruriyatga aylanib ulgurdi. Montessori akademiyasi tahlillariga ko'ra, bola ilk 3-4 yoshlik davrida ikkinchi til o'rgatish eng yahshi vaqt hisonlanadi. Sababi bu vaqtda bola ma'lumotlarni juda yahshi o'zlashtiradi, shuningdek uning miyyasi faol rivojlanayotganligi sababli til o'rganish miya faoliyatini mustahkamlaydi¹. Ushbu fikrlar yosh bolalar tez va oson o'zlashtira olishining yaqqol dalilidir.

MUHOKAMA

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga yoshidan kelib chiqib grammatika o'rgatish va lug'at yodlatib so'z boyligini oshirish uchun zamonaviy texnologiya va usullardan foydalanish zarur. Aks holda bolardagi qiziqish so'nishi, darslar zerikarli bo'lishi va o'quvchilar miyasini darrov charchatib qo'yishi mumkin. Quyida ingliz tilini mazmunli o'rgatishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ayrim innovatsion usullar tahlil qilinadi:

1. O'yinlar orqali o'qitish

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsga jalb qiluvchi, hattoki qiziqmayotgan bolalarni ham e'tiborini tortuvchi asosiy usullardan biri bu til o'rgatish uchun yaratilgan o'yinlardir. Masalan: "Give me five", "Crosswords", "Puzzle games" va "Fly swatter" - so'z yodlash va mustahkamlash uchun. "Simon says", "Hot seat", "What makes me happy" singari o'yinlar esa bolalar orasida musobaqalashish imkoniyatini yaratib, ulardagi energiyani yanada ko'tarib beradi.

2. Vizual materiallardan foydalanish

¹. Chaqaloqlikdanoq til o'rgatish mumkinmi? – go'daklarga chet tilini o'rgatish shubhalari haqida <https://kun.uz/news/2023/11/27/chaqaloqlikdanoq-til-orgatish-mumkinmi-godaklarga-chet-tilini-orgatish-shubhalari-haqida#!>

Amerikalik psixolog J.G. Enderson fikriga ko'ra , kichik yoshdagi bolalarda vizual materiallar(videolar , rasmlar va diagrammalar) 3marta yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.²

Boshlang'ich sinflarni o'qitishda vizual materiallardan foydalanish ingliz tili muhitini yaratish hamda bolalarni so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishida, yangi bilimlarni qulay va samarali o'rganishda muhim omil hisoblanadi.

3. KREATIV YOZUV

O'quvchilarning o'zlashtirayotgan bilimlarini mustaqil qo'llay olishi va bu jarayonda o'quvchining o'ziga xos bo'lgan individual tomonlaridan kelib chiqqan holda shuningdek bolalarning ijodiy fikrlarini bayon eta olish imkoniyatini yaratib beruvchi matnlar,dialoglar va turli xil kreativ usullardan foydalanish ham yuqori samara beradi. Misol uchun "What makes me happy " deb nomlanuvchi o'yinda o'quvchilar o'z qo'llarini daftarga yoki listga chizadi va ularning hursand qilivchi barcha narsalarni ichiga yozib chiqadi. Bu usul nafaqat yodlagan so'zlarini qo'llay olishi balki ularning fikrlash qobiliyati ham rivojlantiradi.

4.TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ingliz tili o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bolalardagi darsga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi hamda ularni mustaqil o'rganishga undovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mobil ilovalar (Smart Tales: Games for kids, My first English , Kids Academy:Learning games) va online platformalar (Word.wall.net , Duolingo) dan dars paytida o'tilgan mavzuni mustahkamlashga asosan mustaqil ravishda o'rganish va tilni yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

XULOSA

² Enderson.J.G. (2018).Power of Visual Learning : How Children Learn Best through Pictures."Journal of Educational Psychology ".

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda innovatsion usullardan foydalanish bolalarni darsda faol ishtirokini ta'minlabgina qolmay, ulardagi til ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi. Darslarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'qituvchilarning ham pedagogik mahoratini kuchaytirib dars samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chaqaloqlikdanoq til o'rgatish mumkinmi? – go'daklarga chet tilini o'rgatish shubhalari haqida

<https://kun.uz/news/2023/11/27/chaqaloqlikdanoq-til-orgatish-mumkinmi-godaklarga-chet-tilini-orgatish-shubhalari-haqida#!>

2. Enderson. J.G. (2018). Power of Visual Learning : How Children Learn Best through Pictures. "Journal of Educational Psychology".